

Andijon viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 020 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 920 tani tashkil qildi.


2026-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 2 255,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar oyiga nisbatan 110,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 215,7 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 126,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2 040,1 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 386,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 111,6 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 911 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 880 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 991,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,5 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 893,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 90,2 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Xonobod (3,2 b.) shaharida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 263 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 261 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 045,8 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 117,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 98,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: X.Toxirov Tel: +998742288000 (6090)	Ijrochi: N. Usmanova Tel: +998742288000 (6041)	Manzil: 170100, Andijon sh., M.Tiklanish ko'chasi, 36-a
---	--	--	---